

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

«Musiqqa san’at» fakulteti

«Maxsus fortepiano» kafedrası

3- bosqich talabasi **Mashrabboyeva Dilnoza**

Rahbar: katta o‘qituvchi **Kabduraxmanova L.B**

Annotatsiya: Musiqqa til, millat tanlamaydi. Shunday ekan har qanday musiqqa insonga hech qanday qiyinchiliksiz tushunilishi mumkin. Musiqqa cheksiz, bepayon ummon kabidir. Shuningdek bu cheksizlikda ijod etgan har bir kompozitor, bastakor, ijrochi esa ajralmas bir bo‘lagi. Har bir kompozitorda har xil o‘y, dunyoqarash, g‘oya hamda o‘zgacha yondashuv.

Bularni bilish va tushunish insonni yanada ko‘proq o‘rganishga chorlaydi. Ijodning har bir qirrasini sir sinoatli va albatta serjilodir. O‘rganish, izlanish davomida esa kashf qilinib, yaratib boriladi. Har bir ijrochi qanday asar ijro etmasin avvalo o‘zi tushunib, his qilib keyin esa tinglovchiga yetkazib berishi kerak. Bu uchun esa chuqur bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi hamda musiqaviy dunyoqarashi keng bo‘lishi muhim.

Kalit so‘zlar: kompozitor, ritm, faktura, virtuoz, intonatsiya, interpretatsiya, dirijor, spektakl.

MUSIQA SAN’ATIDA SERGEY VASILYEVICH RAXMANINOV HISSASI

Kompozitor, dirijor va ijrochi Sergey Vasilyevich Raxmaninov ijodi mana 150 yildirki barhayot. Kompozitor qoldirgan ijodiy merosi bugungi kungacha har bir kompozitor, ijrochi hamda tinglovchilar uchun ahamiyatini yo‘qotmasdan yashab kelmoqda. Buning sababi esa Raxmaninov ijodining o‘ziga xosligi inson qalbiga tegadigan lirikalarga boyligi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Sergey Vasilyevich Raxmaninovni ishonch bilan rus dahosi deb atash mumkin.

S.Raxmaninov 1873-yil 20 martda (1 aprelda) Novgorod viloyati zodagonlar oilasida tug‘ilgan. Uning bobosi pianinochi Arkadiy Raxmaninov mashhur bastakor Jon Fildning shogirdi bo‘lgan. U birinchi musiqiy ta’limni oilasidan olgan.

Keyinchalik Sankt-Peterburg Konservatoriyasi undan so‘ng esa Moskva Konservatoriyasida tahsil oladi. O‘qib yurgan kezlarda Pyotr Ilyich Chaykovskiy bilan tanishadi. Bu tanishuv ham Raxmaninov ijodida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ilk yozgan bir pardali «Aleko» operasi uning ajoyib mahorati va iste’dodini ko‘rsatib beradi. Taniqli kompozitor bo‘libgina qolmay balki u mahoratli dirijor hamda ijrochi ham edi. Yozgan asarlarini avvalo o‘zi ijro eta olgan va omma orasida pianinochi sifatida ham hurmat qozongan [1, 86 b].

1906- yilda esa dunyo bo‘ylab pianinochi hamda dirijor sifatida sayohat qila boshlaydi. Italiya, Germaniya, Amerika va Kanadaga tashrif buyuradi Parijda tashkil etilgan rus tarixiy konsertlarida qatnashadi. Kompozitor sifatida yaratgan Birinchi simfoniyasi qattiq tanqidga duch kelgani sababli uch yil mobaynida deyarli hech qanday asar yaratmaydi. Keyinchalik esa spektakllarga dirijorlik qiladi.



Boshqa bir tomondan esa kompozitor ijodiga Oktyabr inqilobi katta ta'sir ko'rsatadi hamda asarlarida ham namoyon bo'ladi. U Yevropa jamoatchiligi tomonidan sevilgan va Amerikada ham juda qadrlangan.

Kompozitor o'zi shunday deb aytgan: "Men rus kompozitoriman, vatanim xarakterim va qarashlarimda iz qoldirgan". Rossiya ijtimoiy va badiiy hayotining barcha muhim voqealari uning ijodiy hayotida o'z aksini topgan va o'chmas iz qoldirgan. Raxmaninov ijodining rivojlanishi va shakllanishi va gullab- yashnagan davri 1890-1900-yillarga to'g'ri keladi, bu paytda rus madaniyatida eng murakkab jarayonlar sodir bo'lgan.

Sergey Vasilyevich Raxmaninov bilan Skryabin 1900-yillar yorqin kompozitorlaridan bo'lgan. Bu ikki kompozitor ijodi zamondoshlari e'tiborini tortgan va qizg'in muhokama qilingan. Ularning individual asarlari atrofida qizg'in bahs-munozaralar bo'lib o'tgan. Barcha farqlarga qaramasdan Raxmaninov va Skryabin musiqasining individual qiyofasi va majoziy tuzilish, ularning nomlari ko'pincha yonma-yon tilga olingan. Bunday holatga tashqi sabablar bo'lib, ular bir o'quv maskanlarida va bir o'qituvchilardan tahsil olgan. Har ikkalasi ham tengdoshlari orasida ko'zga ko'ringan ijodkorlar bo'lgan. Lekin bu ijodkorlarni bir-biriga taqqoslash asosli emas. Har birini o'zini yo'nalishi va xarakteri shuningdek uslubi mavjud. Shuningdek tinglovchilar qabul qilishi va ijrosida ham o'zgacha elementlarni ko'rish mumkin [3, 236 b.].

Raxmaninov shunday deb aytgan: "Interpretatsiya asosan iste'dod va shaxsiyatga bog'liq. Biroq texnikani egallash talqin qilishning asosidir". Texnikaning rivojlanishi eng muhim zaruratdir. Chunki ijrochidan kompozitor g'oyalarini ifodalash uchun texnik yetuklik bo'lmasa unda hech qanday ijroni talqin qilish haqida gap bo'lishi mumkin emas. Texnika shu darajada erkin va mukammal bo'lishi kerak, ijrochi asar g'oyasini yetkazib berish uchungina o'rganishi kerak.

Iqtidorli talabalar voyaga yetsa, u talqin etishga chuqur kirib borishi lozim. Iste'dod bu - har bir ijrochi o'z ongida boshidan kechirgan tuyg'u.

Interpretatsiya qilishning xususiyatlari uchun maxsus qoidalar va tamoyillar mavjud emas.

Pedal talqin qilish jarayonidagi juda ham muhim. A. Rubinshteyn aytganidek: "Pedal royal qalbi". Lekin umuman olganda bu yerda ham umumiy qoidalar yo'q. Ma'lumki uyg'unlikni o'zgarishi bilan pedalni ham o'zgartirish kerak. Ammo pedal ishlatish mahoratini o'rganish va uni amalda qo'llash juda qiyin. O'rganish mashaqqatli mehnat talab qiladi. Shunday bo'lsa-da asta-sekin o'rganib borish kerak. Pedaldan foydalanish mahorati rivojlanib mustahkamlanib boradi.

Raxmaninov asarlari ijrochidan katta mahorat talab qiladi. Bu faqatgina texnik jihatdan emas balki ma'no va g'oyaviy jihatdan ham murakkabdir. Asarlari faktura jihatdan zichligi va ovozlarga boyligi hamda boshqalardan uchramaydigan ohangdorligi bilan o'zgachadir.

S.Raxmaninov asarlari talqin qilish zamonaviy fortepiano ijrochiligida jiddiy muammolardan biridir. Raxmaninovning musiqasi boshqa romantik kompozitorlar



musiqasiga nisbatan alohida mavqega ega ekanligini ko'rsatadi. Kamdan-kam odam o'z g'oyasini muallifning g'oyasiga qarshi qo'yishi va e'tiroz bildirishi mumkin [2, 155 b.].

Ayni paytda boshqa davrlar keldi, fortepiano chalish uslubi va tinglovchilarning idrok qilish tabiati ham o'zgardi. Raxmaninov asarlarining tubida muammo yotadi. Uni XXI asr ijrochilari tushunishadi va o'z yo'lini topishga harakat qiladi. Zamonaviy musiqachilar, ayniqsa yoshlar uchun Raxmaninov asarlarini o'ziga xos nuqtai nazarini topgan pianinotchilar ijrosida tinglash muhimroqdir. Bularga V. Sofronitskiy, V. Gorovits, S. Rixter, V. Klaybern va boshqalar.

Kompozitorning yoshroq zamondoshi afsonaviy Vladimir Gorovits bu sohada chinakam tushunchalarga ega edi. Gorovitsning Raxmaninov bilan o'xshash jihatlari, birinchi navbatda ular juda go'zal, ideal va shuning uchun ham erishib bo'lmaydigan narsalarga jalb qilish edi.

Raxmaninov musiqasi ijrosida agar romantizm eng go'zal va go'zallik ifodasi bo'lsa, Gorovits haqiqiy romantikdir. Raxmaninov ijodiy evolutsiyasining mohiyati shundan kelib chiqadiki, g'ayratli jo'shqin ohang, boy kontrast kompozitor musiqasining eng kuchli jihatlari asta-sekin orqa fonga o'tib, chuqur falsafiy mulohazalarga o'rin beradi.

Raxmaninov asarlari talqin qilishda yangi so'z aytish uchun hozirgi va kelajakdagi kompozitorlar va ijrochilar o'z avlodlariga yetkazib berishi zarur. "Ijodning ilhomlantiradigan manbani tahlil qilish juda qiyindir", - deydi Raxmaninov.

FOYDALANADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N. Bajanov. Raxmaninov /M.: Yosh gvardiya, 1962. - 447 b.
2. V. Bryantseva. Raxmaninov /M.: Sov.kompozitor, 1976. - 646 b.
3. Yu. Keldish. Raxmaninov va uning davri. / M.: Muzyka, 1973. - 472 b.
4. L. Kovaleva-Ogorodnova. Sergey Raxmaninov II tom/ Vita-Nova, 2015. - 896 b.
5. S. Fedyakina. Raxmaninov/ Yosh gvardiya, 2022. - 480 b.

